



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



**SHARQ MUTAFAKKIRLARINING KONFLIKTLARNI YUZAGA KELISH  
SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH HAQIDAGI PEDAGOGIK  
G'OYALARI**

**Nazarova Dildora Nuralijon qizi**

*Qo'qon davlat universiteti 2 –bosqich magistranti.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Sharq mutafakkirlarining konfliktlar (ziddiyatlar) mohiyatiga bergan falsafiy-pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Al-G'azoliy, Bahovuddin Naqshband, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarning ijtimoiy munosabatlar, muomala madaniyati va ziddiyatlarning oldini olishga doir g'oyalari o'rganiladi.. Sharq mutafakkirlarining qarashlari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan solishtiriladi hamda ular bugungi ta'lim jarayonida qo'llanishi mumkinligi asoslab beriladi*

**Kalit so'zlar:** *Konflikt, Sharq mutafakkirlari, pedagogik yondashuv, axloqiy rivojlanish, tinchlik.*

## **KIRISH**

Bugungi globallashuv va tez o'zgaruvchan jamiyatda shaxslar o'rtasidagi muomala madaniyatining pasayishi, tushunmovchilik va ziddiyatlarning ortishi ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida ijtimoiy-psixologik muammolar, agressiv munosabatlar, nizolarning ortib borishi – ta'lim jarayonida muomala va madaniy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda Sharq mutafakkirlarining ziddiyatlarni bartaraf etish, insoniy fazilatlarini tarbiyalash va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashga doir pedagogik qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q, aksincha, bugungi zamonaviy ta'limda katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining 2023-yil 25-avgustdagi “Yangi O'zbekiston – ma'naviyatli jamiyat” konsepsiyasini e'lon qilarkan, shunday degan edi: “Ma'naviyat – bu insonni tarbiyalovchi eng kuchli quroldir. Insoniylik, sabr, bardosh, adolat – bular har qanday ziddiyatga qarshi eng samarali vositadir.” Ushbu fikr Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlariga bevosita uyg'un bo'lib, ularning g'oyalari zamonaviy ijtimoiy-madaniy muammolarni hal qilishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuningdek, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (2020-yil) va Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish, yoshlarni ijtimoiy moslashuvchan, tolerant va madaniyatli etib tarbiyalash ta'limning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan.[1] 2023–2026 yillarda Yangi O'zbekiston Ta'lim Strategiyasida ham “o'quvchilar va talabalarda kommunikativ, konfliktlarni boshqarish va murosaga kelish ko'nikmalarini shakllantirish” alohida vazifa sifatida qayd etilgan.[2] Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosi nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarb



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya  
2026-yil 30-aprel



ahamiyatga ega bo'lib, ular ilgari surgan insonparvarlik, sabr, adolat va bag'rikenglik g'oyalari hozirgi zamon konfliktologiyasi va ta'lim tizimining poydevoriga aylanishi mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik goyalari ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar, jumladan, psixologik, sotsiologik va pedagogik nuqtai nazarlar keng yoritilgan. Xususan, Morton Deutsch [3] Daniel Golmen[4] Maria Montessori[5] kabi olimlarning ilmi izlanishlari zamonaviy konfliktologiyaning asosiy nazariyalarini o'z ichiga oladi. Mualliflar konfliktlarni hal qilishda ko'p tomonlama yondashuvni — kognitiv, emotsional va ijtimoiy faktorlarni hisobga olishni taklif etadi. Bu yondashuv Sharq mutafakkirlarining inson ichki dunyosi, sabr va bag'rikenglik orqali ziddiyatni bartaraf etish g'oyalari bilan muvofiqlik kasb etadi. Xorijiy adabiyotlarda konflikt faqat tashqi to'qnashuv emas, balki shaxsiy, axloqiy va ijtimoiy muvozanat buzilishi sifatida ko'riladi — bu esa Sharqning ichki kamolga asoslangan yondashuviga o'xshashdir.

Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni bartaraf etish haqidagi pedagogik g'oyalari o'zbek olimlarining zamonaviy pedagogik, psixologik, ijtimoiy va ma'naviy qarashlarida ham aks etgan. Jumladan Abdulla Avloniy[6] jamiyatdagi ziddiyatlarni bartaraf etishning asosiy vositasi sifatida milliy tarbiya va ma'naviy intizomni ko'rsatadi. Mirzo Ulug'bek [7] insonning ichki dunyosini rivojlantirish, o'zini anglash va o'zaro hurmat orqali ijtimoiy ziddiyatlarni hal qilish g'oyasini ilgari suradi. U jamiyatda yuzaga keladigan konfliktlarning oldini olishda, asosan, ilmga, axloqiy fazilatlariga va insonning ichki barkamolligiga e'tibor qaratishni ta'kidlaydi. Ulug'bekning qarashlari Sharq mutafakkirlarining o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan g'oyalarini qo'llab-quvvatlaydi. Mahmudho'ja Behbudiy[8] nsoniy maqsad va axloqiy ideal tushunchalarini rivojlantiradi. U jamiyatdagi ziddiyatlarni hal qilishda insonning ichki dunyosini shakllantirish, ma'naviy kamolotga erishish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu olimlarning izlanishlari Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni ichki kamolot orqali bartaraf etish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda axloqiy qadriyatlar va falsafiy tafakkurning o'zni katta ekanligini ko'rsatib, konfliktlarni bartaraf etishga yordam beradi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning "O'zbekiston – mustaqillik yo'lida" asarida xalqaro siyosat va ichki ijtimoiy barqarorlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.[9] Karimov o'z asarida Konfliktlarni hal qilish va jamiyatdagi ziddiyatlarni kamaytirishda mustahkam siyosiy tizim, ta'lim, va ma'naviyatning muhim roli haqida gapiradi. Bu fikrlar Sharq mutafakkirlarining jamiyatni ichki barkamollik va axloqiy fazilatlar asosida tuzish g'oyalari bilan asoslaydi

Tadqiqotda metodologiyasi sifatida quyidagilardan foydalanildi:

Tarixiy tahlil: Maqolada Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini tarixiy kontekstda o'rganish asosida ularning konfliktlarni tushunish va hal qilish borasidagi qarashlari tahlil qilindi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



Filosofik-pedagogik yondashuv: Sharq mutafakkirlarining fikrlarini pedagogik va axloqiy jihatdan tahlil qilish orqali ularning konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha asosiy g'oyalarini o'rganildi.

Taqqoslash metodologiyasi: Sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan solishtirildi.

Analitik yondashuv: Konfliktlar va ularning oldini olish, bartaraf etish usullari haqida keng miqyosda tahliliy yondashildi.

### **MUHOKAMA VA NATIJA**

Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik goyalarini o'rganish, nafaqat tarixiy, balki zamonaviy jamiyatlarda ham dolzarb masala bo'lib qoladi. Sharq falsafasi va uning mutafakkirlarining pedagogik qarashlari, ko'pincha insonning ichki va tashqi dunyosi, jamiyat va uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy me'yorlar va madaniy an'analar bilan bog'liq bo'lgan konfliktlarni bartaraf etishga qaratilgan.

Jumladan Ibn Sino o'zining asarlarida, ayniqsa, axloqiy va etik masalalar bo'yicha keng fikrlar bildirgan. U shaxsiy taraqqiyot, o'zini anglash va aqliy tinchlikka erishish yo'llari orqali jamiyatdagi konfliktlarni oldini olishni ta'kidlagan. Uning pedagogik goyalari, aqlni rivojlantirish va ichki tinchlikni saqlash, jamiyatdagi keskinliklar va konfliktlarni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Al-Farobiy ning "Fazilatli shahar" modelida Al-Farobiy, o'z asarida ideal jamiyatni yaratish uchun axloqiy va ijtimoiy prinsiplarni ko'rsatadi. U shahar boshqaruvini jamiyatdagi barqarorlikni saqlashga yo'naltirgan va konfliktlarni tinchlik orqali hal etish muhimligini ta'kidlagan. Al-Farobiyning "fazilatli shahar" modelida, konfliktlarning sabablari jamiyatning axloqiy asoslaridagi kamchiliklardan kelib chiqadi va bu kamchiliklarni tuzatish orqali konfliktlarni bartaraf etish mumkin.

Al-G'azolining "Ihya'ul Ulumiddin" asari jamiyatdagi o'zaro ziddiyatlarning manbai sifatida odamlarning ichki kamchiliklarini ko'rsatgan. U, ayniqsa, g'azab, hasad va kibr kabi ichki xatolarning jamiyatda tartibsizlikka olib kelishini aytgan. U konfliktlarni hal etish uchun, odamlarning ruhiy va axloqiy poklanishi, o'zlarini yaxshilashi zarurligini ta'kidlagan. Alisher Navoiy ning falsafiy qarashlarida esa jamiyatda konfliktlarning oldini olish uchun muhabbat, adolat va hamjihatlikni targ'ib qilgan. U insonning ichki va tashqi dunyosidagi tinchlikni yaratish orqali, jamiyatdagi keskinlik va nizolarni hal etishga chaqirgan. Navoiy "Xamsa" asarida shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni, o'zaro hurmatni va tinchlikni saqlashni muhim deb hisoblaydi. Behbudining pedagogik qarashlarida, jamiyatdagi konfliktlarning oldini olish uchun ma'rifat va ilmni yoyish, xalqni tarbiyalashning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning fikriga ko'ra, bilimli va ma'rifatli insonlar jamiyatdagi ziddiyatlarni tushunishga va bartaraf etishga qodir.

Tahlil va muhokalar shuni ko'rsatadiki Sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik goyalari, nafaqat o'z davrida, balki



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
**Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**  
**2026-yil 30-aprel**



zamonaviy jamiyatlarda ham dolzarb ahamiyatga ega. Ular o'z asarlarida, insonning axloqiy, ma'rifiy va ruhiy rivojlanishining jamiyatdagi barqarorlikni saqlashda, shuningdek, konfliktlarni bartaraf etishda muhim o'rin tutishini ta'kidlagan. Shuningdek, ular jamiyatni barqarorlashtirish uchun, har bir insonning o'z-o'zini anglash, axloqiy mas'uliyatni his qilish, hamjihatlik va tinchlikni targ'ib qilish lozimligini ko'rsatgan.

Ushbu goyalar, bugungi kunda ham, ayniqsa o'zgarishlar, ijtimoiy va siyosiy murakkabliklar mavjud bo'lgan jamiyatlarda, konfliktlarni oldini olish va ularni hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Pedagogika sohasida, bu yondashuvlar zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimida ham qo'llanilishi mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa shuki sharq mutafakkirlarining konfliktlarni yuzaga kelish sabablari va ularni bartaraf etish haqidagi pedagogik g'oyalari jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhim .Ular, o'z asarlarida, ziddiyatlarning asosiy sabablari sifatida axloqiy zaifliklar, diniy va madaniy tafovutlar, hamda ijtimoiy adolatsizlikni ko'rsatgan. Konfliktlarni bartaraf etish uchun esa, ular insonning ruhiy poklanishi, axloqiy yuksalishi, o'zini anglash va o'zaro hurmatni rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. Sharq mutafakkirlaridan Ibn Sino, Al-Farobiy, Al-G'azali, Navoiy va Behbudiy kabi olimlar jamiyatdagi ziddiyatlarni tinchlik yo'li bilan hal etish uchun ma'rifat va axloqiy qadriyatlarni oshirish, shuningdek, jamiyatda hamjihatlik va adolatni ta'minlash zarurligini ko'rsatgan. Ularning pedagogik g'oyalari, bugungi ta'lim tizimida ham qo'llanilishi mumkin, chunki ular shaxsning ichki rivojlanishini va jamiyatdagi muammolarni hal qilishda ma'naviyat va axloqning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlari va konfliktlarni hal etishga oid g'oyalarini o'rganish jamiyatdagi ziddiyatlarni kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va tinchlikni mustahkamlashga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil) va Prezidentning 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-sonli Farmon
2. 2023–2026 yillarda Yangi O'zbekiston Ta'lim Strategiyasi
3. Morton Deutsch, Peter T. Coleman. The Handbook of Conflict Resolution: Theory and Practice. – Jossey-Bass, 2006. -P.45
4. Daniel Goleman. Emotional Intelligence. – Bantam Books, 1995
5. Maria Montessori. The Absorbent Mind. – Holt Paperbacks, 1995.
6. Abdulla Avloniy – "Milliy tarbiya" .Toshkent. 2010 -B.77
7. Mirzo Ulug'bek – "Shaxs va Jamiyat" Toshkent. -B.63
8. Mahmudhoja Behbudiy – "Maqsad va Ideal" Toshkent -B.120
9. Islom Karimov – "O'zbekiston Mustaqillik Yo'lida" Toshkent . -B.13